



## MANG'ITLAR HOKIMYATGA KELISHI

*Erkinov Suhrobbek**Toshkent amaliy fanlar universiteti Tarix va filologiya fakulteti**Tarix yo'nalishi 302-guruh talabasi*

**Annotatsiya.** MANG'ITLAR — Buxoro amirligini boshqargan sulola (1757—1920). Uning vakillari Mang'it qabilasiga mansub bo'lganlar. Tarixiy tadqiqotlarda keltirilishicha, mang'itlar yirik turkiy urug'lardan biri bo'lib, ular dastlab XIIIXIII asrlarda Dashti Qipchoq, Idil (Volga) va Yoyiq daryolari oralig'ida yashagan. XIV asrning oxirida Oltin O'rta davlatidan ajralib chiqib, alohida Mang'it O'rdani tashkil qilganlar. XV asr o'rtalarida mang'itlar no'g'aylar (nog'aylar) deb atalgan. Mang'it O'rda ham bu paytdan boshlab No'g'ay O'rda (No'g'ay xonligi) nomini olgan. No'g'ay O'rda davlatida asosan mang'itlar va qo'ng'irotlar yashagan.

**Kalit so`zlar:** Dashti Qipchoq, Idil (Volga) va Yoyiq daryolari, Abulfayzxon, Rajab Sulton, Ubaydullaxon, Balx, Nodirshoh, Muhammad Hakimbiy, Muhammad Rahimbiy.

**KIRISH**

Buxoro xonligida ashtarkoniylar sulolasining inqirozi va mang'itlar hokimiyatga kelishi XVIII asr Markaziy Osiyo tarixining murakkab va o'zgaruvchan davrlaridan biri bo'lib, bu jarayonlarni o'rganish tarixshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur davrda xonlikda yuzaga kelgan ichki siyosiy beqarorlik, ijtimoiy-iqtisodiy tanazzul, qabila-urug'lar o'rtasidagi hokimiyat kurashlari, tashqi bosqinchilik tahdidlari va markaziy hokimiyatning zaiflashuvi natijasida yangi siyosiy kuch sifatida mang'itlar maydonga chiqdi. Aynan shu voqealar zanjiri Buxoro xonligining keyingi siyosiy tuzilmasi – ya'ni Buxoro amirligi tashkil topishiga zamin yaratgan muhim tarixiy poydevor bo'lib xizmat qilgan.



Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, unda Markaziy Osiyo tarixida sulola almashinushi jarayonlarining qanday ichki va tashqi omillar ta'sirida ro'y bergani, sulolaviy legitimlik, siyosiy vakillik, qabila munosabatlari, tashqi bosqinchilik siyosati va mahalliy siyosiy elitalarning roli chuqur tarixiy asosda tahlil qilinadi. Ayniqsa, Abulfayzxon boshqaruvining so'nggi yillaridagi murosasiz siyosiy qarorlar, Nodirshohning intervensiysi va bu jarayonda Muhammad Hakimbiy va uning o'g'li Muhammad Rahimning tutgan o'rni hozirgi zamonaviy tarixiy-siyosiy tahlillar uchun muhim dalil va faktlar manbai hisoblanadi. Bu esa, tarixshunoslar uchun ham, siyosatshunoslar va mintaqaviy xavfsizlikni o'rganayotgan tadqiqotchilar uchun ham dolzarb tadqiqot yo'nalishidir.

**Asosiy qism.** Buxoro xonligida ashtarxoniyalar sulolasiga boshqaruvining zaiflashuvi yangi sulolaning hokimiyat tebasiga kelishiga zamin yaratdi. Albatta, bu tanazzulning ichki va tashqi omillari mavjud edi. Dastlab ichki omillarni tahlil qilib ko'rsak. XVIII asrdan boshlab xonlikda chuqur inqiroz holati kuzatildi. Abulfayzxonning davlatni boshqarishdagi no'noqlik siyosati mamlakat yaxlitligiga putur yetkazdi. Abulfayzxonning qo'lida real hokimiyat yo'q bo'lib, amalda hokimiyat nazorati yirik qabila sardorlari qo'l ostida edi<sup>1</sup>. Davlatda o'zboshimchalik, boshboshdoqlik, o'zbek qabila-urug'lari o'rtasida hokimiyat uchun kurash, ayrim hududlarning mustaqillikka bo'lgan intilishining kuchayishi bilan bog'liq holatlar Buxoroni ham ichki, ham tashqi siyosatda to'la tanazzul yoqasiga olib keldi.

Jamiyat hayotida bunday muammolarning yuzaga kelishiga asosiy sabablardan biri ashtarxoniyalar sulolasining so'nggi vakili Abulfayzxonning davlatni boshqarishdagi roli pasayganligi va uning yetarli boshqaruv qobiliyatiga ega emasligida edi. Aslida, u hali bola paytlardayoq taxtga olib chiqilib, atrofidagi kuchli amirlar va sarkardalar qurshovida, ularning ma'lum bosimi ostida davlatni boshqarishi xonning sekin-asta erishiladigan qudratiga to'siq bo'lgandi. Amirlik davlat tuzumini maxsus tadqiq etgan huquqshunos olim Jo'rabe Shodiyevning

<sup>1</sup> Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVIII – первой половине XIX века. Т.2. – Тошкент: Фан, 1970. – Б.46.



yozishicha, obyektiv sabablar bilan bir qatorda, mamlakatda bunday xavfli vaziyatning yuzaga kelishiga quyidagi uchta subyektiv omil va voqealar ham muayyan darajada o‘zining ta’sirini o‘tkazgan:

Birinchidan - xonlikning muhim hududiy markazlaridan biri hisoblangan hamda mamlakatning asosiy iqtisodiy, ma’rifiy va harbiy resurslari joylashgan Samarqandning xonning asosiy raqiblaridan biri bo‘lgan Rajab Sulton boshqaruviga o‘tishi<sup>2</sup>;

Ikkinchidan - nomusulmon bo‘lgan jung‘orlar quvg‘inidan qochgan qozoq ulamolariga nisbatan xon hokimiyati tomonidan yetarli e’tibor bo‘limgani va buning oqibatida muslimonlar o‘rtasida katta obro‘ga ega bo‘lgan ushbu ulamolarning yetti yil davomida sargardonchilikda bo‘lishlari aholining xonga bo‘lgan hurmat-e’tibori yo‘qolishiga olib kelgani;

Uchinchidan - xonning bevosita yo‘l qo‘yib berishi natijasida Ibodullo va uning tarafdorlari tomonidan muqaddas qadamjo hisoblanadigan Xoja Bahovuddin xonaqasining vayron etilishi aholining kuchli noroziligi kelib chiqishiga sabab bo‘lgani. Ubaydullaxonning Buxoro xonligi taxtiga chiqishi Balx bilan muvozanatni izdan chiqarib yubordi. Bunday vaziyatda xonning jiyani, Balx hokimi Muhammad Muqimxon ham Buxoro taxtiga da’vogarlik qiladi. Shundan so‘ng Buxoro xonligi taxti uchun kurash boshlanib, ikki o‘rtadagi kurash besh yil davom etadi. Muqimxon otalig‘i Mahmudbiy qatag‘on ko‘magida Balxni xonlikdan alohida qilib, o‘z nomiga xutba o‘qitadi va tanga zarb ettiradi<sup>3</sup>. Natijada xonlik hududi amalda ikki qismga bo‘linib ketadi.

Ubaydullaxon mamlakat yaxlitligini ta’minlash maqsadida Balxga, Muqimxonga qarshi yurish qiladi. Ikki o‘rtada qonli urushlar boshlanadi. Muqimxon tarafidan nomi yuqorida eslab o‘tilgan Mahmudbiy otaliq (qatag‘on urug‘idan) qo‘singa bosh bo‘lib, Amudaryo janubidan Movarounnahr sari bir necha marta yurish qiladi. Ubaydullaxon esa Balxga qarshi kurashga boshchi etib yuz qabilasi (ba’zi manbalarda mang‘it qabilasi)ning sardori Rahimbiy otaliqni tayinlaydi. Bu

<sup>2</sup> Садуллаев А., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. – Тошкент: Академия, 2006. – Б.114.

<sup>3</sup> Zamonov A., Egamberdiyev A. Buxoro amirligi tarixi. – Toshkent: Tamaddun, 2022. – В.21.



urush aslida, amaki-jiyan o‘rtasidagi taxt talashuvidan ko‘ra ko‘proq ikki nufuzli o‘zbek urug‘ining adovatidan iborat bo‘lgan. Chunki, Subhonqulixon hukmronligining so‘nggi yillarida qabila-urug‘ sardorlarining nufuzi ortib, ashtarxoniyalar xonadoni shahzodalari ularning ta’siriga tusha boshlagan edi. Ubaydullaxon (1702-1711) davrida Balx va Farg‘onaning mustaqil bo‘lishi, Abulfayzxon davrida esa Samarcandning Rajab Sulton boshqaruviga o‘tishi mamlakatning tobora zaiflashib borayotganini ko‘rsatar edi.

Samarqandda mustaqil xonlikning tashkil topishi xonlikni ichidan yemirgan eng katta omillardan biri bo‘ldi. 1722-yilda kenagas urug‘ining sardori Ibrohimbiy xonga qarshi chiqib, Samarqandda kuyovi Rajab Sultonni xon deb e’lon qiladi. Rajab Sulton 1723-yil Buxoroga yurish qilib mag‘lubiyatga uchraydi. Keyingi yil esa 30 ming kishilik qo‘shin yig‘ib yana Buxoroga yurish qiladi. Bu yurishlar kutilgan natijani bermagach, Rajab Sulton boshqa yo‘l tutishga majbur bo‘ladi. U 1724-yilda qozoq sultonlariga bosib olinajak mintaqalardan katta miqdordagi o‘lja va’da qiladi va ularni Buxoroga hujum qilishga chorlaydi. Ushbu og‘ir vaziyatda qozoqlar Markaziy Osiyoning boy mintaqalariga yurish taklifiqa tezda roziliklarini bildiradilar. 1724-yilda Rajab Sulton ularning yordami bilan Buxoro shahrini o‘rab oladi va uni uch kunlik talon-taroj qilishga buyruq beradi.

1725-yil yozida Vobkent viloyatida Abulfayzxon va Rajab Sulton qo‘shinlari o‘rtasida hal qiluvchi jang bo‘lib o‘tadi. Jang Rajab Sultonning mag‘lubiyati bilan yakunlanadi. Biroq, qozoq- qo‘ng‘irot qabilalari Movarounnahrda qolib, yetti yil davomida Samarcand, Buxoro, Shahrisabz va Qarshi viloyatlarini vayron qilib, Hisor va Ko‘lobgacha yetib kelishadi. Sharqshunos Anke fon Kyugelgenning ma’lumotlariga ko‘ra, otaliq lavozimida faoliyat yuritgan Muhammad Hakimbiy (Muhammad Rahimning otasi) isyonchilar va ichki dushmanlar bilan tinchlik yo‘lida muzokaralar olib borishi natijasida muayyan muddat davomida barqarorlikni saqlashga muvaffaq bo‘lgan<sup>4</sup>. Shu bilan birga, yuqorida nomi tilga olingan Ibodullo xitoy o‘z tarafдорлари va boshqa xitoy-qipchoq

<sup>4</sup> Анкефон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII – XIX вв.) – Алматы: Дайк-Пресс, 2004. – С.13.



urug‘iga mansub bo‘lgan aholi bilan birgalikda Miyonqolda amirga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan va buning oqibatida bir qator shahrlar vayrona holatga tushib qolgan.

Bunday vaziyatda Abulfayzxon Ibodullo xitoyning qilmishlariga yarasha jazo berish o‘rniga, aksincha, uni devonbegi lavozimiga tayinlagani xalqning Abulfayzxon hokimiyatiga nisbatan noroziligin va unga qarshi borish ruhiyatini keltirib chiqargan. Shuningdek, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan hududlarda ham sulola vakillarining noib bo‘lmaganligi ham markazdan uzoqlashish omilini yuzaga keltirgan. Bu paytga kelib, ashtarxoniyalar sulolasini ichida xonga tirkak bo‘larli yaqin

qarindoshlar yo‘q edi. Ma’lumki, bir qancha manbalar Abulfayzxonning o‘z taxtiga xavf solishi ehtimoli bilan bir nechta o‘g‘llarini qatl ettirganini tasdiqlaydi. Abulfayzxonning o‘zi esa Subhonqulixonning kichik o‘g‘li bo‘lib, unga qadar barcha akalari vafot etgan yoki halok bo‘lgan edi. Bu ham xon atrofida tayanch bo‘lishi mumkin bo‘lgan sulola vakillari bo‘lmaganidan dalolat beradi. Natijada, Abulfayzxon o‘zbek urug‘lari sardorlarigagina tayanishga majbur edi.

Hokimiyatning ashtarxoniyalar qo‘lidan mang‘itlar qo‘liga o‘tishida yana bir asosiy va muhim omil tashqi siyosiy vaziyat hisoblanadi. Xususan, mamlakat sharqida endigma tashkil topgan Qo‘qon xonligi o‘z chegaralarini Buxoro xonligining sharqiy hududlari hisobiga kengaytirayotgan va bu omil ikki davlat o‘rtasida urushlarning tez-tez bo‘lib turishiga olib kelayotgan edi. Shuningdek, Hindistondagi boburiylar sulolasini vakillari bilan aloqalar ancha susaygan, Eronda esa safaviylar bilan mavjud iliq munosabatlar yangi hokimiyat tepasiga kelgan afshorlar (Nadirshoh) bilan yomon munosabatga almashgan edi. Eron shohi Nadirshohning tashqi siyosiy faoliyati asosan Buxoro xonligini o‘z ta’sir doirasiga olishga qaratilgani, o‘z navbatida, xonlikda davlat hokimiyatining tubdan o‘zgarishiga sabab bo‘lgan.

Mamlakatdagi og‘ir vaziyat, xonlik sarhadlarining birma-bir qo‘ldan ketishi avj olgan bir sharoitda Eronda shakllanib kelayotgan afshorlar sulolasini Eronning shimoliy hududlarini egallahni boshlaydi. Nadirshoh afshor (1736-1747)ning o‘g‘li Rizoquli ushbu hududlarni egallahsga kirishadi. Dastlab Andxo‘y, keyin Shibirg‘on



va unga yondosh viloyatlar egallanadi. Navbat esa “Ummul bilod” (Shaharlar onasi) deb ta’rif etiladigan Balx shahriga yetib keladi. Bu vaqtida Balx noibi ashtarxoniy Abul Hasanxon edi. Ikki o‘rtada sodir bo‘lgan jangdan so‘ng Rizoquli g‘alaba qozonib, Abul Hasanxonni qo‘lga oladi va Qandahorda turgan otasi huzuriga yuboradi. Nodirshoh Balxning egallanishidan mamnun bo‘lib, o‘g‘li Rizoqulini turli darajadagi qimmatbaho mukofotlar bilan taqdirlaydi. Bu Rizoqulining harbiy yurish ruhiyatini ko‘targan va unga yuqori ishtiyoyq bergan.

Amudaryoning janubiy qismidagi hududlar egallangandan so‘ng, asosiy e’tibor endilikda xonlik markaziy qismi bo‘lgan Movarounnahrga qaratiladi. Amudaryodan o‘tgan Rizoqulini ilk qarshi olgan hudud Qarshi viloyati bo‘ldi. Bu davrda Qarshini idora qilayotgan Muhammad Hakimbiy otaliq yordam so‘rab Abulfayzxonga murojaat qiladi. Abulfayzon esa o‘z navbatida qoraqalpoqlar, qozoqlar va Xorazm xoni Elbarsxon (1728-1740)dan yordam so‘rashga majbur bo‘ladi. “Firdavs ul-iqbol” asarida bu haqda shunday hikoya qilinadi: “Buxoro xoni Abulfayzon va Hakim otaliq (Xiva xoni) Elbarsxon va Eshmuhammadbiydin yordam so‘radi. Ular anga ming kishilik ko‘mak yuborib, Elbarsning o‘zi izidin og‘ir cherik bila yurish qildi. Xon Buxoroga yetishmay, qizilboshiya (eroniyalar) Qarshida murojat xabari eshitib, Abulfayzon bila yarashib, iziga qaytdi”. Bu Xiva va Buxoro xonligi birgalikda yagona dushmanga qarshi harakat qilgan kamdan kam holatlardan biri edi. Xivadan katta qo‘sish bilan Elbarsxon yaqinlashayotganidan xabar topgan Rizoqulixon orqaga, Balxga chekinishga majbur bo‘ladi. Shu bilan Buxoro xonligi markaziy qismiga uyushtirilgan dastlabki hujum ko‘zlangan natijani bermadi.

Xonlikka qarshi ikkinchi hujum 1740-yilda bo‘ladi. Nodirshohning navbatdagi yurishlari Buxoro uchun og‘ir kechadi. Nodirshoh bu yurishlarida Buxoro xonligi otalig‘i Muhammad Hakim va uning o‘g‘li Muhammad Rahimlar bilan muzokara qildi hamda ular bu jarayonda faol qatnashdilar. Nodirshohning Buxoroga yaqinlashib kelayotganidan qo‘rqan Abulfayzon darhol Muhammad Hakimni Qarshidan chaqirtirib, unga Nodirshoh huzuriga elchi bo‘lib borishini, shohni qahridan tushirib davlatning xarob qilinishiga yo‘l qo‘ymaslikni topshirdi.



Muhammad Hakim katta huquqlar beruvchi shoh yorlig‘ini olib Buxoroga jo‘nadi, endi u Abulfayzxonning elchisi sifatida emas, balki shohning vakili sifatida kelgan edi. Buxoroga qaytib kelganidan so‘ng u o‘z qarorgohiga borishni xavfli deb hisoblab, Mir Arab madrasasiga tushdi va madrasaning tevarak-atrofiga qurolli qorovullar qo‘ydi.

Abulfayzxon otaliqni huzuriga chaqirib, keyin umumiy kuch bilan xalqni qo‘zg‘atib, eroniylar va ularning tarafdarlariga qarshi chiqmoq uchun harakat qilib ko‘rdi. Lekin Muhammad Hakimbiy xonning huzuriga bormadi. Abulfayzxon qattiq

sarosima ichida saroyga qaytib ketdi, endi uning Nodirshohga taslim bo‘lishdan boshqa iloji qolmagan edi. Abulfayzxon mansabdar saroy ahllari bilan birga Buxoroning Tolli Poch darvozasidan chiqib Nodirshoh huzuriga yo‘l oladi. O‘z navkarlari bilan Nomozgoh darvozasidan chiqqan Hakimbiy otaliq ham o‘sha tomonga yo‘l oladi. U yo‘lning yarmida xonga yetib olib unga qo‘shiladi, shu bilan birga xonning xiyonatkor otaliq bilan uchrashuvi jami qoida- tartiblarga muvofiq bir tarzda o‘tadi, ya’ni otaliq xon oldida mulozamat bilan qo‘l qovushtirib turadi, xon ham, o‘z navbatida, otaliqqa e’tibor va shafqat bilan qaraydi. Shundan keyin, xon bilan otaliq birgalashib shoh huzuriga boradilar.

Xon bilan Buxoroning quyidagi amir va beklari Nodirshoh qabulida bo‘lishgan va har biri shohga peshkashlar bilan borishgan: Hisor hokimi – Muhammad Aminbek, Qobodiyon hokimi – Ya’qubiy Do‘rmaniy, Shahrисабз hokimi – Olimbiy kenagas, Xatirchi hokimi – G‘aybullabiy Bahram, Dabusiya qal’asi hokimi – Abdusattorbiy, Nurota hokimi – Tag‘oy Murodbiy barqut.

Nodirshoh bilan Buxoro yaqinida, Zarafshon daryosi bo‘yidagi Chor Bakr degan joyda uchrashadilar (Abdukarim Buxoriy (vafoti 1830- yil)ning yozishicha, oliy darajadagi bu uchrashuv Qorako‘lda bo‘lgan). Nodirshoh Abulfayzxonga iltifot bilan muomala qilib, uning huquqini tan oladi<sup>5</sup>. Mirzo Olim Mahdum Hojining yozishicha, “Nodirshoh Abulfayzxonning boshiga toji murassa va xal’atifoxira ila malbus aylab, uni “Abulfayzshoh” deb ataydi”. Xon shoh qarorgohida o‘n sakkiz

<sup>5</sup> Вохидов Ш., Холикова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқарув тарихидан. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б.119.



kun bo‘lganidan keyin Buxoroga qaytadi. Shuningdek, Nodirshoh va Abulfayzxon o‘rtasida qarindoshlik aloqalari ham o‘rnataladi. Shoh Abulfayzxonning bir qizini o‘z nikohiga olgan bo‘lsa, yana bir qizini esa jiyani Odilshoh ibn Ibrohimga nikohlashga erishgan. Nodirshoh Movarounnahr (Buxoro xonligi) hukmronligini Abulfayzxonning o‘ziga topshiradi. Biroq Nodirshoh Buxoro ma’murlari va aholisi bilan faqatgina Muhammad Hakimbiy orqali aloqa qilardi. Chunki shoh unga tamomila ishonch bilan qarar edi.

1747-yil iyun-iyul oylarida ular o‘z artilleriyasi bilan Buxoro atrofini to‘pga tutgan. Muhammad Rahim shahar hunarmandlari ko‘magida shahar devori va darvozalarini ta’mirlab mudofaani so‘ng Muhammad Rahim bilan sulh tuzib, Adulfayzxonning o‘g‘li kuchaytirgan. Eron sarkardalari Nodirshoh vafotiga ishonganlaridan Abdulmo‘minni otasi o‘rniga xonlik taxtiga chiqarib Eronga qaytdilar. Shu tariqa, xonlik taxtini rasman 36 yil boshqargan Abulfayzon 1747-yilda mash’um tarzda o‘ldiriladi.

Hokimiyat nazoratini o‘z qo‘liga olgan Muhammad Rahimbiy xonlik taxtiga Abdulmo‘min ibn Abulfayz (1738-1751)ni o‘tqizadi. U 1747-1751-yillarda hukmronlik qilgan bo‘lsa-da, amalda real hokimiyat Muhammad Rahimbiyning qo‘lida bo‘lgan. U o‘z qizini Abdulmo‘minga nikohlab berib, o‘zi otaliq lavozimida davlatni idora qiladi. Har holda uch yilgacha xonlik nomi Abdulmo‘minda bo‘lib turdi. 1751-yilda aralasha boshlagan Muhammad Rahimbiyning boshqaruviga Abdulmo‘minxon o‘rtadan olib tashlandi. Muhammad Rahimbiy yana odamlardan ibo qilib, Urganch sultonlaridan Ubaydullo sultonni xonlikka ko‘tardi. Bu haqda ba’zi manbalarda Abulfayzxonning kenja o‘g‘li Ubaydullaxonni taxtga o‘tqizgan deb yoziladi. Uch yilgacha xonlik nomi unda bo‘ldi. Shundan so‘ng, Muhammad Rahimbiy uni ham hokimiyatdan olib tashladi. Garchi Ubaydullaxon (III) 1751-1754-yillarda taxtga o‘tirgan bo‘lsa-da, u ham real hokimiyatga ega bo‘lmagan.

1756-yil 16-dekabrda mang‘itlar xonadonidan bo‘lgan Muhammad Rahimbiy din ulamolari, amaldorlar tomonidan xon (1756-1758) deb e’lon qilingan. Lekin u o‘zini «noib ul-hukumat», ya’ni, hukmdor noibi, o‘ribbosari deb bilgan<sup>6</sup>.

<sup>6</sup> Zamonov A., Egamberdiyev A. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Bayoz, 2022. – B.38.



Shu tariqa, ashtarxoniyalar sulolasini hukmronligi rasman barham topadi. Bu sulola o‘rniga yangi mang‘itlar sulolasini hukmronligi boshlanib, bu jarayon 1920-yilgacha davom etdi.

Xulosa qilib aytganda, XVIII asrda Buxoro xonligida ro‘y bergan siyosiy inqirozlar, ayniqsa, ashtarxoniyalar sulolasining tanazzuli va mang‘itlar sulolasining siyosiy sahnaga kirib kelishi o‘sha davr mintaqaviy tarixida burilish nuqtasi bo‘ldi. Bu davrda hokimiyat markazining zaiflashuvi, qabila-urug‘lar o‘rtasidagi kuchli raqobat, tashqi xavf-xatarlarning kuchayishi va markaziy hokimiyatga bo‘lgan ishonchning yo‘qolishi mang‘itlar sulolasining siyosiy maydonga chiqishi uchun sharoit yaratdi. Ayniqsa, Muhammad Hakimbiy otaliq va uning o‘g‘li Muhammad Rahim mang‘itlar sulolasining poydevorini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynagan.

Nodirshoh intervensiyasining dastlabki bosqichlarida mang‘itlar vakillarining diplomatik va harbiy faolligi, Abulfayzxonning siyosiy qarorlaridagi zaiflik, shuningdek, ichki qo‘zg‘olonlar va ijtimoiy noroziliklar bu davrni yanada murakkablashtirdi. Shuningdek, Nodirshohning Abulfayzxonni rasmiy tarzda tan olib, lekin amalda hokimiyatni Muhammad Hakimbiy orqali amalga oshirgani sulola almashinuvi jarayonining siyosiy jihatdan puxta rejalashtirilganini ko‘rsatadi.

Mazkur tarixiy bosqichni chuqur o‘rganish Buxoro xonligi va keyinchalik shakllangan Buxoro amirligi tarixining murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini anglash, mintaqadagi sulolaviy legitimlik muammolarini tahlil qilish, shuningdek, zamonaviy siyosiy barqarorlik konsepsiylariga tarixiy asos topish uchun muhim manbadir. Shu bois, bu davr tarixining tahlili nafaqat tarixiy haqiqatni tiklash, balki davlat boshqaruvi, siyosiy meros va mintaqaviy siyosiy tizimlar evolyutsiyasini o‘rganishda ham alohida ahamiyatga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

### RO‘YXATI

1. Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVIII – первой половине XIX века. Т.2. – Тошкент: Фан, 1970.



2. Анке фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII – XIX вв.). – Алматы: Дайк-Пресс, 2004.
3. Сагдуллаев А., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. – Тошкент: Академия, 2006.
4. Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқарув тарихидан. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.
5. Zamonov A., Egamberdiyev A. Buxoro amirligi tarixi. – Toshkent: Tamaddun, 2022.
6. Zamonov A., Egamberdiyev A. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Bayoz, 2022.